

SHAYBONIYLAR DAVRI MEMORCHILIGI

Mustafayev Voxidjon Zoxidjon o'g'li

Aniq va Ijtimoiy Fanlar Universiteti

2-kurs magistranti

vohidmustafaev@gmail.com

+998994488097

Annotatsiya: Shayboniylar sulolasi davrida olib borilgan memorchilik ishlari rivoji, me'morchilik an'analari, memorchilikda qanday uslublardan foydalanganliklarini hozirgacha dunyo aholisi va olimlarni lol qoldirmoqda. Maqolada shu haqida malumot beramiz.

Kalit so'zlar: Me'morchilik, ark, shahar, ansambl, arxitektura, masjidlar, maqbara, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Masjidi Kalon, Mir Arab, Shaxriston

Annotation: The development of memorial works during the Shaibani dynasty, architectural traditions, and what methods were used in memorial are still surprising to the people and scientists of the world. We will provide information about this in the article.

Keywords: Architecture, arch, city, ensemble, architecture, mosques, mausoleum, Muhammad Shaybani Khan, Ubaydullah Khan, Abdullah Khan II, MiKalon Mosque, Mir Arab .Shakhristan

O'zbekiston me'morchiligini tarixiy ildizlariga nazar tashlasak uzoq asrlarga borib taqaladi. So'g'd, Baqtriya, Xorazm kabi hududlarda ilk davrlari boshlanib, to Temuriylargacha va undan so'ng Shayboniylar davrida ham yuksak darajada rivojlangan. Me'morchilik borasida Shayboniylar davrida ulkan va mashxur obidalar qurilganligiga shohid bo'lamiz. O'zbek me'morchiligida Temur va Temuriylar davridagi qurilish an'alarini davom ettirgan sulola bu

Shayboniylar bo'lgan. Aynan, XVI asrdan bizgacha ko'pgina arxitektura yodgorlik binolari qad ko'targan.

XVI asr davomida hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi vakillari ham me'morchiligimiz tarixida o'z o'rniga egadir. Muhammad Shayboniyxon va uning vorislari Amir Temur va temuriylar davridagi me'morchilik an'alarini davom ettirganlar. O'zbek davlatchiligimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ushbu sulola hukmdorlari davrida arxitektura sohasida bir qancha inshootlar qurildi. Temuriylar hukmronligining inqirozga yuz tutishiga va Shayboniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishiga sabab bo'lgan siyosiy voqealar o'sha davrdagi mahalliy arxitekturaning rivojlanishiga ta'sir qilmaydi. XVI asrdagi arxitektura yodgorliklari asosan dininy jamoat binolari, masjidlar, madrasalar, mozorlar, shuningdek, savdo uchun mo'ljallangan turli binolar qurilgan. Shayboniylar davrida mamlakatning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi, Karmana, Turkiston, Marv, Balx, Hirot, Xiva kabi ko'plab yirik shaharlarida me'morchilik inshootlari madrasa va masjidlar, xonaqohlar, timlar, minoralar, hammomlar, karvonsaroylar, sardoba, ko'priklar va shu kabi ko'plab qurilish ishlari olib borildi.¹ Me'morchilik inshootlari xususiy mulkdorlar tomonidan ham bunyod etilgan. Shaharlar devorlari ta'mirlandi, ko'plab ijtimoiy va madaniy binolari qurildi. yoning boshqa hududlarida uchramagan. Shayboniylar davrida Samarqandda poytaxt Buxoroga ko'chirilgunga qadar ko'plab qurilish ishlari amalga oshirilgan. Shahar ichida ko'pgina hashamatli binolar qurilgan. Samarqand shahrining sharqiy qismida Yangi(Nav) mahallasiga asos solindi. Bu mahallada Samarqand zodagonlarining bog'lari joylashgan bo'lib, ular orasida «Dili Afro'z» bog'i go'zalligi bilan mashhur bo'lgan. XVI asrdagi ko'plab yirik qurilishlardan bizning davrimizgacha katta sug'orish inshooti hisoblanmish Zarafshondagi suv taqsimlagich saqlanib qolgan. 1503-yilda Muhammad Shayboniyxon buyriga ko'ra bu suv ayirgich Zarafshon daryosi suvini asosiy o'zan Qoradaryo va Oqdaryoga taqsimlab bergan. Suv taqsimlagichning mustahkamligi, daryolarning asrlar davomida kuchli suv toshqinlariga bardosh

¹ Razhabov, Inoyatov. Buxoro tarixi. - Toshkent: Bukhoro tarixi, 2016. -91-93 b.

bera olishi me'mor-ustalarimizning yuqori darajadagi injenerlik san'atini ko'rsatib beradi. Shayboniyxon davrida Zarafshon daryosidagi suv miqdorini oshirish uchun ko'priklar ham quriladi. Muhammad Shayboniyxonning Samarqand shaharida madrasa qurdirganligi haqida unga zamondosh tarixchilar «shaxsan o'zi qurdirgan Madrasayi Oliyaga» borganini yozib qoldirganlar. Samarqanddagi bu «Madarasai Shayboniyxon» madrasai oliyasi (Xoniya yoki madrasai Xon deb ham nomlangan) qurilishi Registon va Ohanin (Shohi Zinda) darvozlari oralig'ida Muhammad Shayboniyxon hayotligida boshlangan.² Madrasa qurilishi o'g'li Temur Muhammad Sulton tomonidan davom ettirilib 1512-yilda bitkazilgan. Keyinchalik Shayboniyxonning kelini Mehri Sulton-Mehrubon xonim ham Xoniya madrasasining shimolida yana bir madrasa qurdirgan. Mehri Sulton xonim ikkala madrasani lojuvard va zarhal koshinlar bilan birlashtirilgan. Shuning uchun bu madrasa xalq tilida «Qo'sh madrasa» yoki «madrasai Xo'rjin» deb ham ataladi. Keyinchalik madarasada Samarqandlik Shayboniylarning avlodlari dafn etilgan dahma vujudga kelgan[3]. Registon maydonidagi Bahodir Yalangto'sh tomonidan qurilgan, Tillakori va Sherdor madrasalari oralig'ida, Samarqand hukmdorlari bo'lgan Shayboniylar Sulolasi vakillarining dahma - supa maqbaralari joylashgan. Bu dahmadagi qabrlar dastlab Shayboniyxon buyrug'i bilan asos solingan «Xoniya» madrasasining hovlisida bo'lgan. Keyinchalik esa Rossiya imperiyasi ma'muriyati va sobiq SSSR davrida shaharni qayta qurish jarayonlarida bu ochiq maqbara bir necha bor boshqa joyga ko'chiriladi.³

Bu supaga dastlab Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sulton (Ubaydullaxonning otasi), keyinchalik Shayboniylar oilasining boshqa a'zolari, Shayboniyxonning onasi, o'g'illari, qizlari ham dafn etiladi. Muhammad Shayboniyxon 1510 yilda Marv yaqinida Eron safaviylari bilan bo'lgan jangda halok bo'lgach, uni boshsiz tanasi ham Samarqandga olib kelinib kulrang marmardan ishlangan ushbu baland supaga ko'miladi. Shayboniyxonning qabri

² O'zbekistonning tarixiy obidalari (Samarqand, Buxoro, Xorazm, va Toshkent viloyatlari misolida) Samarqand-2011.-43 b.

³ Azamat Ziyov «O'zbek davlatchiligining tarixi»-2000-yil.-114 b.

ustidagi katta, naqshinkor bezakli marmar qabr toshi keyinchalik Rossiya imperiyasi davrida Sankt- Peterburgga olib ketilgan. XVI asr o'rtalarida Ko'chkinchixonning o'g'li Abu Saidxon tomonidan "Ko'k gumbaz" madrasasi quriladi. Madrasa Registon maydonining janub tomonida joylashgan bo'lib, Samarqandlik Shayboniylarning yana bir sag'anasining gumbaz shaklidagi zalini o'z ichiga olgan. Madrasa sag'anasi ko'k gumbazli bo'lganligi uchun ham "Ko'k gumbaz" deb atalgan. Asosiy oyna devorlarining yer ostida qolib ketgan qoldiqlari "Childuxtaron" deb nomlangan bo'lib, ⁴ XX asr boshlariga qadar saqlangan. Qabr toshlaridagi yozuvlarga ko'ra bu yerda Ko'chkinchixon, uning 3 o'g'li, va 3 nabirasi dafn etilgan. Madrasani qurdirgan Abu Saidxonning qabr toshi Kulrang-qora toshdan o'yib ishlangan va ajoyib o'yma naqshlar solingan. Bu tosh va unga ishlov berish usuli Hirotidagi Temuriylar qabri toshlariga juda o'xshash bo'lib, bu qabr toshlarini tayyorlash uchun Hirotlik ustalar jalb etilgan bo'lishi ham mumkin. XVI asrga oid tarixiy manbalarga ko'ra, Samarqandni janubida So'zangaron, g'arbida Chorraha, shimoliy tomonida Ohanin darvozalari bo'lgan. Zaxriddin Muhammad Bobur ham o'z asarida Samarqandning Ohanin, So'zangaron, Shayxzoda, Feruza, Gozuriston nomlarida darvozalari bo'lganligi haqida ma'lumot bergan. Markaziy Osiyodagi boshqa shaharlar kabi Samarqand ham mahobatli himoya devorlari bilan o'ralgan edi. Zayniddin Vosifiy bu haqida qo'yidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Karvon Samarqand shahri darvozasiga yetgach shunday bir shaharni qurdilarki, g'oyat mustahkam va mahkam. Devorni balandligi shu qadar ediki, agar falak ho'kizi uning tepasidan o'tganda kungurasining keski qornini yirtgan bo'lardi" . Samarqand devorlari va darvozalar uni tashqi dunyo bilan bog'lovchi asosiy vosita sifatida juda ahamiyatli bo'lgan.⁵

Hamma davrda sulolalar o'z poytaxtini rivojlantirishga xarakat qilgan. Shu bilan birgalikda Shayboniylarni poytaxti Buxoro bo'lganligi sababli

⁴ Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

⁵ Vamberi X. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. –Toshkent, 1990.-211 b.

yirik binolar qurilgan¹. Bunga Buxoroni siyosiy, iqtisodiy obro'sini oshishi shahar aholisini ko'payishiga va kengayishiga sabab bo'ladi. Masalan, Buxoro shahar devorining ta'mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon (Abdullaxonning onasiga atalgan), Gavkushon, Jo'ybor, Fatxulla qo'shbegi, Qulbobo Ko'kaldosh (Ko'kaldosh), Abdullaxon, Chor Bakr(xonaqosi bilan) masjidlari qurilgan qolaversa, Samarqandda Muhammad Shayboniyxon qurdirgan Xoniya, Abu Said, Qulbobo Ko'kaldosh nomi bilan bog'liq madrasalar, Toshkentda bo'lsa, Ko'kaldosh madrasasi, Kaffoli Shoshiy maqbarasi, Baroqxon madrasasi; Turkiston (Yassi) da Muhammad Shayboniyxon jome masjidi; Karmanada Qosim Shayx masjidi; Balx shahar qa'lasini 14 km devorini tamirlashtirgan. Va boshqa turli xil shaharlarda hammomlar, bozorlar qurilgan. Ana shu an'analarni Shayboniyxon vorislari davom ettirgan. Xususan Abdullaxon va Abdullaxon II davrida Buxoro shahri yangi devor bilan o'rab olingan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Abdullaxon II ni davrida 1001 ta rabot va sardobalar (usti berk suv ombori) qurilgan ekan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Shayboniylar davri me'morchiligini asosiy qismlari Shayboniyxon va Abdullaxon II davrida qurilganligi sir emas. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida ko'plab inshootlar qurilgan bo'lib, onasiga atab Modarixon, Chor Bakrga ham Abdullaxon II asos solgan bo'lib, o'z hisobidan 70 ming oltin tanga sarflagani ham bejizga emas.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ko'pgina qadimiy turarjoy binolari tag-tugi bilan yo'q bo'lib ketgan.⁶ Ammo Shayboniylar davri me'morchiligi san'atining o'zi bir alohida madaniy meros sifatida namoyon bo'lib turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu yerda ta'bir joiz bo'lsa, rus yozuvchisi N.V.Gogolning quyidagi fikrini bayon etish maqsadga muvofiqdir. "Me'morchilik ham xalqning toshga bitgan yilnomasidir va u halok bo'lgan xalq haqida va uning adabiyoti va afsonalarini so'zlay olmagandagina tilga kiradi" degani

⁶ .Sagdullayev A., Aminov B.B., Mavlonov O'.M., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.-71-72 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azamat Ziyov – “O‘zbek davlatchiligi tarixi” – 2000-yil.
2. Q. Usmonov, U. Jo‘rayev, N. Norqulov – “O‘zbekiston tarixi” – 2014-yil.
3. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: Н. Норкулов. – Т.: 2009
4. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий /Форс–тожик тилидан Нарзулла Йўлдошев таржимаси. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003.
5. Бухоро Шарқ дурдонаси. Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Шарқ 1997.
6. Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Uzbekistan Today, 2016.
6. .Sagdullayev A., Aminov B.B., Mavlonov O‘.M., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
7. Vamberi X. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – Toshkent, 1990.
8. Бухоро Шарқ дурдонаси. Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Шарқ 1997. - Б. 99.
9. Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Uzbekistan Today, 2016. - Б. 538.
9. Амонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви (XVI аср). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018.
10. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: Н. Норкулов. – Т.: 2009 - 330 бет.
11. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий /Форс–тожик тилидан Нарзулла Йўлдошев таржимаси. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003. – 343 бет.
12. Temirov F., Umarov B. Practical application of family, marriage and inheritance rights in bukhara emirates // Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 1. - S. 1201-1207.
13. O‘zbekistonning tarixiy obidalar (Samarqand, Buxoro, Xorazm, va Toshkent viloyatlari misolida) Samarqand-2011.
14. Rajabov O. Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida / ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.